

**DIN VA MA'NAVIY KAMOLOT**

Jurayev Sayxun Tirkash o'g'li -

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari

universiteti Samarqand filiali,

Kompyuter injiniringi fakulteti, talabasi

e-mail – sayxunbekjurayev@gmail.com

Ilmiy rahbar: Samatov Xurshid O'lmasjonovich

Falsafa fanlari doktori, Dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada din va ma'naviy kamolot o'rtasidagi uzviy bog'liqlik tahlil etiladi. Dinning inson tarbiyasidagi roli, ma'naviy qadriyatlarning shakllanishi va ularni saqlab qolishdagi diniy ta'limotlarning ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, zamonaviy jamiyatda dinning ruhiy tarbiya vositasi sifatidagi o'rni haqida ham fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: din, ma'naviyat, kamolot, tarbiya, qadriyat, ruhiy poklik

Kirish

Insoniyat tarixining eng qadimiy davrlaridan beri din va ma'naviyat inson hayotining ajralmas qismlaridan biri bo'lib kelgan. Har bir davr, har bir jamiyat va madaniyatda din kishilarning ruhiy dunyosini shakllantirishda, axloqiy me'yorlarini belgilashda asosiy manba sifatida namoyon bo'lgan. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, din faqatgina ibodat tizimi emas, balki insonning ma'naviy kamolot sari intilishidagi muhim omil hamdir.

Din va insoniyat ma'naviyati

Din inson qalbini poklaydi, ruhini tarbiyalaydi, hayotga nisbatan mas'uliyatli munosabatda bo'lishga undaydi. Har bir dinda ma'naviy kamolotga erishish yo'llari ko'rsatilgan: sabr, halollik, saxiylik, bag'rikenglik, kechirimlilik kabi fazilatlar aynan diniy ta'limotlar orqali tarbiyalanadi. Jumladan, islom dinida "Eng afzalingiz – odobi go'zal bo'lganingizdir"[2] degan hadis barchamizga ibratdir.

Ma'naviy kamolot — bu insonning ichki dunyosining mukammallashuvi, ruhiy



jihatdan yetuklik darajasidir. Din bu jarayonda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi, ko‘ngilga taskin beradi, hayotning sinovlarini sabr bilan yengishga o‘rgatadi. Ma’naviyat esa o‘z navbatida din orqali yuksaladi.

Dinning jamiyatda tarbiyaviy vazifasi ham muhim o‘rin tutadi. Diniy ta’limotlar orqali yoshlar orasida axloqiy qadriyatlar mustahkamlanadi. Masalan, Qur’oni Karimda ota-onaga hurmat, yetimlarga mehr, kambag‘allarga saxovatli bo‘lish kabi ko‘plab ijtimoiy-ma’naviy ko‘rsatmalar mavjud: “Ota-onalarga yaxshilik qiling, qarindoshlarga, yetimlarga, miskinlarga yordam bering” [1 (Baqara surasi, 83-oyat)]. Bu ko‘rsatmalar yosh avlodni jamiyatga foydali, halol, mas’uliyatli inson sifatida kamol topishiga xizmat qiladi.

Bugungi globallashuv davrida, ayniqsa, yoshlar ma’naviy tahdidlar — ommaviy madaniyat, g‘arbliklashuv, ruhiy bo‘shliq kabi omillar ta’sirida qolmoqda. Shu nuqtada dinning ma’naviy himoya sifatidagi o‘rni yanada oshadi. U insonni o‘zligini unutmaslikka, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni saqlab qolishga da’vat etadi.

Zamonaviy jamiyatda ham din o‘z o‘rnini yo‘qotgani yo‘q. Aksincha, insonning ichki dunyosi qanchalik bo‘shab borayotgan bo‘lsa, din unga shuncha ko‘proq kerak bo‘lmoqda. Bugun psixologiya, meditatsiya, “mental sog‘lik” kabi tushunchalar ko‘p uchraydi. Aslida esa, din ana shu ruhiy barqarorlikni asrlar davomida ta’minlab kelgan.

Islom dinining ta’limotlarida inson qalbining orom topishi uchun Allohni eslash tavsiya qilinadi: “Darhaqiqat, Allohni zikr etish bilan qalblar taskin topadi”. [1(Ra’d surasi, 28-oyat).] Bu oyat nafaqat diniy, balki psixologik nuqtayi nazardan ham muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy ilm ham doimiy stress, xavotir va depressiya singari muammolarga qarshi ruhiy tayanch zarurligini ta’kidlaydi. Shu bois, dinning hozirgi davrdagi ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Xulosa

Din va ma’naviy kamolot bir-biridan ajralmas tushunchalardir. Din – bu inson qalbining nuridir, ma’naviyat esa bu nurdan yorishgan hayot tarzidir. Ma’naviy kamolotga erishish uchun inson o‘zini anglashi, qalbini poklashi va hayotini ma’naviy qadriyatlarga asoslagan holda yashashi lozim. Jamiyatda sog‘lom ijtimoiy muhit barpo



etish, yosh avlodni tarbiyalash, axloqiy me'yorlarni tiklash va saqlab qolish yo'lida dinning roli beqiyos hisoblanadi. Bugungi kunda ayniqsa, milliy-ma'naviy uyg'onish davrida bu mavzu yana-da dolzarb bo'lib bormoqda. Zero, jamiyat taraqqiyotining poydevori – bu ma'naviy yetuk, axloqan barkamol insonlardir. Bunday insonni esa avvalo din tarbiyalaydi. Shunday ekan biz zamonimizni din va ma'naviyatni uyg'unlikda bir biri bilan chambarchas bog'liqlikda ifodalashimiz kerak. Shu bilan birgalikda hayotimizni yaxshi tomonga o'zgarishiga ham katta ta'sir ko'rsatishi bejiz emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qur'oni Karim. (O'zbekiston musulmonlari idorasi tafsirli tarjimasi). – Toshkent: Hilol-Nashr, 2014.- 13 - 14 -betlar (Baqara:83), 260 -bet (Ra'd:28).
2. Imom Buxoriy. "Al-Adab al-Mufrad". – Qohira: Dar al-Hadith, 2004. – 273-bob.
3. Muhammad al-G'azzoliy. "Ihyo ulum ad-din". - Qohira: Dar al-Ma'rifa, 1998. - 1 - jild, 200-bet.
4. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". T.: Ma'naviyat, 2008. -27-bet.
5. Turaev A. Dinshunoslik asoslari. T.: O'zbekiston, 2020. - 112- bet.
6. Ziyoyeva N." Ma'naviyat va din: uyg'unlik yo'llari". // "Ma'naviyat" jurnali, 2021-yil, №3.-35-40-betlar.